

**“Turonbank” ATB  
Boshqaruv Raisi v.v.b.  
S.T.Kaldibayevga**

## **BILDIRISHNOMA**


Komplaens nazorat departamenti tomonidan “Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankida korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish to‘g‘risida” Nizom ishlab chiqildi.

Mazkur ichki me’yoriy hujjatning qonunchilikka muvofiqligi to‘g‘risida Bank Yuridik xizmatining yuridik xulosasi olinib, Bank Ekspert guruhi tomonidan imzolandi.

Komplaens nazorat departamenti tomonidan “Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankida korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash masalasini Bank Boshqaruvi va Bank Kengashi muhokamasiga kiritishga ruxsat berishingizni so‘raymiz.

*Mazkur ichki me’yoriy hujjat ilova qilinmoqda.*

**Komplaens nazorat  
deparmenti direktori**

T.M.Jabbarov  


“Turonbank” ATB Kengashining  
2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi  
“\_\_\_” -son qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

“Turonbank” ATB Boshqaruving  
2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi  
“\_\_\_” -son qarori bilan

“MA’QULLANGAN”

“Ro‘yxatga olindi” №\_\_\_\_\_

**“TURONBANK” ATBDA KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIK  
HAQIDA XABAR BERGAN YOKI KORRUPSIYAGA QARSHI  
KURASHISHGA BOSHQA TARZDA KO‘MAKLASHGAN XODIMLARNI  
RAG‘BATLANTIRISH TO‘G‘RISIDA  
N I Z O M**

Mazkur “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish to‘g‘risida Nizom (keyingi o‘rinlarda “Nizom” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Bank siri to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli, 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-sonli Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 829-sonli qarori, Markaziy bankning tegishli ko‘rsatma va tavsiyalari, Adliya Vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlarga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – “Bank” deb yuritiladi) Ustavi, Bank tizimida Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish choralar to‘g‘risidagi Siyosat, Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish Siyosati, Mehnatga haq to‘lash, rag‘batlantirish va mukofotlash Siyosati, Odob-axloq qoidalari, Korrupsiyaga qarshi kurashish va Etika Qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom, Xodimlarni rag‘batlantirish va moddiy yordam ajratilishini "Komissiya" tomonidan ko‘rib chiqish Tartibi, Bankning boshqa ichki me’yoriy hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

## 1-bob. Umumiy qoidalar

**1.** Ushbu Nizom “Turonbank” ATB tizimida korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan Bank xodimlarini rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

**2.** Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan Bank xodimlarini rag‘batlantirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) Bank tizimida korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish;

b) Bank tizimida korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta’minalash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

v) Bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirishhamda ularni ushbu sohaga qo‘sheyotgan hissasi uchun munosib taqdirlash.

**3.** Rag‘batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg‘a shaklida belgilanishi mumkin.

**4.** Mazkur Nizom asosida Bank xodimlarini rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar quyidagilar hisoblanadi:

1) korrupsiya bilan bog‘liq huquqbazarliklar to‘g‘risida xabar bergen shaxslarni rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish orqali Bank tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish;

2) Bank tizimida korrupsiya omillarini aniqlash, korrupsiya xavf-xatarlarini boshqarish va ularni minimallashtirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish;

3) xizmat vazifalarini bajarishda xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar berish va ularni hal qilish masalalarini lozim darajada tartibga solish, shuningdek, ushbu majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlikni oshirish;

4) Bank tizimida korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni, shuningdek, ularning sodir etilishi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

##### **5. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushuncha va atamalardan foydalaniladi:**

**Bankning boshqaruv organlari** – Bank aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Bank Kuzatuv kengashi va Bank Boshqaruvi;

**korrupsiya** - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaviy harakatlar** - xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

**mansabdor shaxs** - doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda, Banklarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy- xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xalqaro Bankda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarini amalga oshiruvchi shaxs.

**nepotizm** (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, favoritizmnинг qarindoshlik rishtalariga asoslangan ko'rinishi) - o'zining yaqin qarindoshlari yoki do'stlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta'sir o'tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do'stlariga assossiz mukofotlar xisoblash, Bank manfaatlari zarariga, yaqin qarindoshlari va do'starini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar;

**rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar** - belgilangan tartib- taomillar yoki harakatlarni sodir etish bilan bog'liq standart tartiblar amalga oshirilishini ta'minlash yoki tezlashtirish maqsadida tegishli qonunchilik va normativ me'yorlar hamda qoidalarda ko'zda tutilmagan noqonuniy ravishda taqdim etiladigan pul mablag'lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar hamda boshqa moddiy foyda;

**xodim** - Bank bilan mehnat munosabatlari kirishgan jismoniy shaxs;

**"komplaens-nazorat" tizimi** - korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tizimi;

**yaqin qarindoshlar** - bir-biriga qarindoshlik yoki yaqin aloqasi bor shaxslar, ya'ni ota-onal, tug'ishgan hamda tutingan aka-ukalar va opa-singillar, er-xotin, farzandlar (jumladan asrab olingan farzandlar), buvilar, buvilar, nabiralar, shuningdek er (xotin)ning ota-onasi, tug'ishgan va tutingan aka-ukalari va opa-singillari;

**urug‘-aymoqchilik** - Bank xodimining avlod-ajdodlari bir bo‘lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligiyu

**2-bob. Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan  
(korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan)  
xodimlarni rag‘batlantirish asoslari**

**6.** Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan (korrupsiyaga qarshikurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan) bank xodimlarini rag‘batlantirish quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti bilan ““Turonbank” ATB Kuzatuv Kengashi huzuridagi korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mita”si taqdimnomasi asosida "Turonbank" ATBning tizimida xodimlarni rag‘batlantirish va moddiy yordam ajratish **"Komissiya"**si (keyinga o‘rinlarda - Komissiya) tomonidan rag‘batlantirilishi mumkin:

1) korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida berilgan xabar uchun — bazaviy hisoblash miqdorining **3 (uch) baravari miqdorida**;

2) pora summasi (yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulkning qiymati) bazaviy hisoblash miqdorining **30 (o‘ttiz) baravarigacha bo‘lsa** - bazaviy hisoblash miqdorining **5 (besh) baravari miqdorida**;

3) pora summasi (yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulkning qiymati) bazaviy hisoblash miqdorining **30 (o‘ttiz) baravaridan 100 (bir yuz) baravarigacha bo‘lsa** - bazaviy hisoblash miqdorining **10 (o‘n) baravari miqdorida**;

4) pora summasi (yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulkning qiymati) bazaviy hisoblash miqdorining **100 (bir yuz) baravaridan ko‘p bo‘lsa** - bazaviy hisoblash miqdorining **15 (o‘n besh) baravari miqdorida**.

5) korrupsiyaga oid huquqbazarlik to‘g‘risidagi murojaat (xabar) yuzasidan o‘tkazilayotgan xizmat tekshiruv mobaynida ahamiyatga ega bo‘lgan dalillar haqida ushbu xizmat tekshiruvni o‘tkazayotgan ishchi guruhga xabar bergenlik yoki bunday tadbirlarni o‘tkazishda bevosita ko‘maklashganlik uchun **tashakkurnoma yoki esdalik sovg‘a shaklida**.

Esdalik sovg‘aning umumiy qiymati (barcha soliq va yig‘imlar bilan birga) bazaviy hisoblash miqdorining **2 (ikki) baravaridan oshmasligi** lozim.

**3-bob. Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar berganyoki korrupsiyaga  
qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish  
masalasini ko‘rib chiqish tartibi**

**7.** Rag‘batlantirish masalasi Bankning **"Komissiya"**si tomonidan quydagilardan biri qabul qilingandan so‘ng ko‘rib chiqiladi:

a) korrupsiyaga oid huquqbazarliklar bo‘yicha sudning ayblov hukmi yoki qarori qonuniy kuchga kirganda;

b) o‘tkazilgan xizmat tekshiruvi natijasida bank xodim(lar)ining xarakatlari (xarakatsizligi) bilan korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilganligi aniqlansa.

**8.** Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish masalasi **"Komissiya"** tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Bunda, Komplaens nazorat departamenti rag‘batlantirish to‘g‘risidagi ma’lumotnoma bilan ““Turonbank” ATB Kuzatuv Kengashi huzuridagi korrupsiyaga qarshi kurashish va etika Qo‘mitasi”ga taqdim etadi, Qo‘mita ko‘rib chiqish uchun “Komissiya”ga taqdimnoma yuboradi.

“Komissiya” muhokamasiga rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish uchun ma’lumotnoma bilan birga quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

1) ro‘yxatdan o‘tgan ariza (murojaat) nusxasi yoki og‘zaki berilgan xabarni tasdiqlovchi ma’lumotlar;

2) qonuniy kuchga kirgan sudning ayblov hukmi (qarori);

3) shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar.

“Komissiya” tomonidan rag‘batlantirishga oid hujjatlar kelib tushgandan so‘ng hujjatlarning to‘liqliligi, asosliligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinganligi ko‘rib chiqiladi va qaror qabul qilinadi.

“Komissiya”ning ijobiy qarori qabul qilingandan so‘ng komissiya kotibi tomonidan bayonnomma (qaror)dan ko‘chirma tayyorlanadi va 3 (uch) ish kuni mobaynida:

a) rag‘batlantirish bir martalik pul mukofoti tarzida belgilangan bo‘lsa Buxgalteriya hisobi departamentiga;

b) rag‘batlantirish esdalik va (yoki) tashakkurnoma tarzida belgilangan bo‘lsa – Xodimlarni boshqarish (HR) departamentiga ijro uchun yuboriladi.

#### **4-bob. Javobgarligi**

**9.** Korrupsiya holatlari haqida xabar bergan xodimlar ta’qibga olinmaydi. Bank o‘z xodimlari manfaatlarini himoya qiladi va boshqa xodimlarning shubhali xulq-atvori yoki korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari buzilgan (buzilishi mumkin)ligi haqida xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo‘shatish, lavozimini tushirish, diskriminatsiya, zulm o‘tkazish, ta’qib qilish singari o‘ch olish harakatlariga yo‘l qo‘yilmasligini kafolatlaydi.

**10.** Bank korrupsiyaga oid shabhalari yoki korrupsiya faktlari to‘g‘risida xabar berishning xavfsiz va maxfiy tartibini ta‘miinlaydi va gumon haqida xabar bergan shaxs ma’lumotlarining huquqiy himoyasi va maxfiyligini ta‘minlaydi. Bank shubhali holatlari haqida xabar berganda ushbu shaxsni har qanday ta‘qibdan himoya qilishni kafolatlaydi.

**11.** Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

**12.** Bank xodimlari tomonidan atayin yolg‘on xabar yuborish Bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati talablarini buzish va Odob-axloq qoidalariga zid xulq-atvor namunasi sifatida baholanadi va bunday xabarlarini yuborgan xodimlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki me’yoriy hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

**13.** Korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etgan (korrupsiya haqida xabar bergan), Bankka yoki bankning nazorati ostidagi yuridik shaxsga aloqador bo‘lgan shubhali faoliyat, firibgarlik yoxud suiiste’molliklar to‘g‘risida xabar qilgan Bank xodimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning oshkor etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

## **5-bob. Yakuniy qoidalar**

**14.** Ushbu ““Turonbank”” aksiyadorlik tijorat banki tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish tog‘risida Nizom” tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

**15.** Mazkur Nizomga o‘zgartirish va qo‘srimchalar Bank Kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.

**16.** Ushbu Nizomga Bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika Qo‘mitasi, Xodimlarni rag‘batlantirish va moddiy yordam ajratish Komissiyasi va boshqa kollegial organlari, Komplaens nazorat, Xodimlarni boshqarish (HR), Buxgalteriya hisobi, Xavfsizlik departamentlari va boshqa tarkibiy bo‘linmalar, Bank xizmatlari markazlari rahbar va barcha xodimlarining riosa etishlari majburiy hisoblanadi.


**17.** Mazkur Nizom ijro etilishi ustidan nazorat va amalga oshirilishi bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni tashkil qilish bo‘yicha tegishli vakolatlar Komplaens nazorat departamentiga beriladi.

**18.** Ushbu Nizom talablarini buzishda aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

**19.** Mazkur Nizomda ko‘zda tutilmagan boshqa holatlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Bank ichki me’yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

*Kiritildi:*

**Komplaens nazorat  
departamenti direktori**



T.M.Jabbarov

**““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish to‘g‘risida Nizom” loyihasini huquqiy ekspertiza o‘tkazish yuzasidan**

**X U L O S A**

2024-yil 31-yanvar

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi 2733-sun qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to‘g‘risida”gi Nizomga hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-sun bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomning 3.1.bandiga muvofiq, ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish to‘g‘risida Nizom” loyihasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazilganda quyidagilar

**A N I Q L A N D I :**

Taqdim etilgan Nizom loyihasi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Bank siri to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sunli, 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-sunli Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 829-sunli qarori, Markaziy bankning tegishli ko‘rsatma va tavsiyalari, Adliya Vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-sun bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom, ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – “Bank” deb yuritiladi) Ustavi, Bank tizimida Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish choralarini to‘g‘risidagi Siyosat, Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish Siyosati, Mehnatga haq to‘lash, rag‘batlantirish va mukofotlash Siyosati, Odob-axloq qoidalari, Korrupsiyaga qarshi kurashish va Etika Qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom, Xodimlarni rag‘batlantirish va moddiy yordam ajratilishini “Komissiya” tomonidan ko‘rib chiqish Tartibi, Bankning boshqa ichki me’yoriy hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur Nizom “Turonbank” ATB tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan Bank xodimlarini rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

Nizom Umumiy qoidalari, Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan (korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan) xodimlarni rag‘batlantirish asoslari, Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish tartibi, Javobgarligi, Yakuniy qoidalarni belgilab beradi.

Mazkur Nizomda keltirilgan masalalarni ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida mehnatga haq to‘lash, rag‘batlantirish va mukofotlash Siyosati”ga kiritish maqsadga muvofiq.

“Turonbank” ATB Komplaens nazorat departamenti tomonidan ishlab chiqilgan ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish to‘g‘risida Nizom” loyihasi qonunchilik hujjatlariga zid emas.

Yuqoridagilarga ko‘ra, Nizom loyihasini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalari bo‘yicha

#### **X U L O S A Q I L I N D I:**

““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish to‘g‘risida Nizom” loyihasi yuqoridagi qonunchilik asosida ishlab chiqilganligi va boshqa qonunchilik hujjatlariga zid emasligi, qonunchilik texnikasi qoidalariga, havola qiluvchi normalar qo‘llanilishining asosliligi qayd etilsin.

Mazkur loyiha ko‘rib chiqish uchun Ekspert guruhi muhokamasiga taqdim etilsin.

**Bank yuridik xizmati mutaxassisi (yuristi)**



**D.Valiyev**

*Ekspert guruhi bilan kelishildi:*

Guruhi rahbari, Boshqaruv  
Raisining birinchi o'rinososari

A.T. Tashev

Ekspert guruhi rahbari o'rinososari,  
Boshqaruv Raisi o'rinososari

S.T. Kaldibayev

*Ekspert guruhi a'zolari:*  
**Moliya masalari direktori**  
(CFO-Cheif Financial Officer)

Bank yuridik xizmati boshlig'i v.v.b

Sh.A.Nurnazarov

Xodimlarni boshqarish (HR)  
departamenti

N.I.Tangniberdiyev

Loyihalarni boshqarish ofisi rahbari

F.A.Ismailov

Risk departamenti direktori

D.A.Toshpulatov

Moliya bozorlaridagi operatsiyalar  
departamenti direktori v.v.b.

A.K. Talipov

Korporativ biznes departamenti direktori

A.N. Muradov

Kichik va o'rta biznes  
departamenti direktori

A.A.Muazzamov

Monitoring va nazorat qilish departamenti  
(Middle office) direktori

D.G.Gayratov

Muammoli aktivlar bilan ishlash  
departamenti direktori

Z.N.Boboyev

Chakana biznes departamenti direktori v.v.b

S.M.Mubarov

Filial tarmoqlarini boshqarish  
departamenti direktori

Sh.E.Bozorov

Axborot texnologiyalari departamenti  
direktori

Z.Ya.Ibragimov

Operatsion departamenti direktori

D.M.Nazarova

Mijozlar servisi va marketing  
departamenti direktori v.v.b.

Z.M.Tadjiyev

Metodologiya ishlarini muvofiqlashtirish  
boshqarmasi boshlig'i

M.J.Mo'minov